
SAYYOR QABUL: MUAMMOLARGA YECHIM IZLANMOQDA

Oltiariq tumani hokimi Shamsiddin Turdaliyev O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oltiariq tumanidagi Xalq qabulxonasida navbatdagi fuqarolar qabulini o'tkazdi.



Unda tuman Xalq qabulxonasi mudiri, sektor rahbarlari, tumandagi korxonalar, tashkilot, muassasalar rahbarlari ishtirok etdi. Sayyor qabulda aholining murojaatlari atroflicha o'rganib chiqildi.

Sayyor qabulda 55 nafardan ortiq fuqaro tomonidan ishga joylash, tadbirkorlikni boshlash uchun yer va kredit olish, moddiy yordam va nafaqa pullarini olish, uy-joy olishda yordam so'rab o'nlab murojaatlar tinglandi.



Sayyor qabullar xalqning dardini eshitish, ularning muammolarini hal etishda, shak-shubhasiz, kutilgan natijalarni bermoqda. Shu kuni o'nlab murojaatlar mas'ul rahbarlar boshchiligida ijobiy hal etildi. Bundan tashqari, muddat talab etiladigan murojaatlar nazoratga olinib, ayrim murojaatlar bo'yicha fuqarolarga tegishli huquqiy maslahatlar berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-05-19 22:25:02